

MUSIQANING SHARQ MADANIYATINING SHAKLLANISHIDA O'RNI

Abbos Boboev,

Jizzax davlat pedagogika instituti,

Musiqqa ta'limi fakulteti

101-guruh talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada o'zining fan va madaniyati bilan bir necha ming yillardan buyon yer yuziga ziyo tarqatib kelayotgan sharq madaniyatida musiqaning o'rnini ahamiyati musiqaning fan sifatida shakllanishi musiqqa sohasining vujudga kelishi va uning rivojlanish g'urkirash davri haqida yoritib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Sharq madaniyati, maqom, Sharq taronalari.

Sharq xalqlari mumtoz musiqqa san'ati va madaniyati tarixi katta davrni o'z ichiga oladi. Qadimgi sharqda mavjud bo'lgan qadimgi Misr podsholigi, old Osiyodagi Shumer, Akkad, Bobil (Vaviloniya), Ossuriya, Urartu, Xett davlatlari, Eron imperiyasi, O'rta Osiyo, Xindiston, Xitoy va Janubiy Sharqiy Osiyodagi davlat va podsholiklar jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdilar. Sharq xalqlari yashaydigan hududda quyosh nurining mo'lligi, suvi, toshqin daryolari, serunum yerlari odamlarni erta dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishga o'rgatdi. Qadimgi Sharqda san'at uzoq vaqt hunarmandchilikni bir qismi sifatida qoldi. Eramizdan avvalgi 5000-4000 yillardayoq bu yerlarda sinfiy jamiyat - quldorlik jamiyati shakllana boshladi va bu jamiyat yangi eraning boshlarigacha davom etdi. Quldorlik jamiyati san'atining vazifasi esa ko'pchilikni boshqaruvchi sinfga, ekspluatatorlar g'oyasini omma ichida targ'ib qilish bo'lib qoldi. Sharq xalqlarining realizmi ham o'ziga xos xususiyatga ega. U ko'pincha voqelik, kishilar va tushunchalarni fantastik obrazlarda, ramziy va shartli belgilarda tantanali, ulug'vor qilib ifodalaydi. Biz Sharq san'atini o'rganganda alohida yirik san'atkorlar ijodi to'g'risida to'xtalmaymiz. Chunki san'at na'munalari omma ichidan chiqqan noma'lum iste'dod egalari tomonidan yaratilgan. Old Osiyo

san'ati deganda o'rta yer dengizi, havzasining sharqiy qismi sohillari, Kichik Osiyoning tog'li tumanlari chegaralarida eramizdan avvalgi Shumer, Akkad, Ossuriya, Urartu, Bobil kabi qator davlatlar mavjud bo'lib, ular jahon san'ati tarixiga o'z hissalarini qo'shganlar. Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san'atining rivojlanishi qadim zamonlarga bog'lanib ketadi.

Buyuk Sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug'bek, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma'lumotlarni bayon etib ketganlar. Mashhur didaktik asar «Qobusnoma»da ham hofizlik va san'atkorlikning qoidalariga bag'ishlangan alohida bob o'rin olgan. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish Maqom, Mug'om, Dastgoh, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan - avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san'atkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon halqlari musiqasida quyidagi o'n ikki (davozdax) maqom mavjud bo'lgan. Bular «Ushshoq», «Navo», «Buzalik», «Rost», «Husayniy», «Hijoz», «Rohaviy», «Zangula», «Iroq», «Isfahon», «Zirofqand», «Buzurg»dir. Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining «Dar bayoni duvozdah maqom» (o'n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: Xoja Abdulqodir ibn Adurahmon Marog'iy, Xoja Sayfidin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloiriylarning so'zlariga qaraganda, avvalda maqomlar yettita bo'lgan :«Maqomi rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Roho», «Maqomi Hijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Husayniy». Yana ushbu risolada ulug' bobomiz Ulug'bekning o'zi tanbur va nog'orani juda yaxshi chalganligini, «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuliy otlig'» singari kuylarni ixtiro qilganligini ta'kidlab o'tadi. Musiqa ilmiga ulkan xissa qo'shgan buyuk faylasuf

olim, o'rta asr Sharq musiqa nazariyasining asoschilaridan biri - Abu Nasr Muhammad Al-Forobiy 871- yilda Sirdaryo yoqasidagi Forob shahrida tug'ilib, 950- yilda vafot etgan. U, O'rta Osiyo turkiy qabilalaridan chiqqan bo'lib, dastlabki ma'lumotni o'z yurtida oladi. Durustgina bilim egasi bo'lgan Al-Forobiy Bag'dod, Damashq shaharlariga, so'ngra Misrga boradi va u yerlarda o'z ma'lumotini oshiradi. Al-Forobiy ajoyib musiqachi va musiqa nazariyachisi edi.

Bugungi kunda sharq musiqasi o'zining o'rnini va ahamiyatini saqlab kelmoqda jahon miqiyosida tan olingan bo'lib xalqaro musobaqalar festivallari tashkil etilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi milliy musiqa san'atining eng yaxshi namunalari keng targ'ib qilish, milliy musiqa an'alarini saqlash va rivojlantirish, yosh avlodga san'atga muhabbat tuyg'usini uyg'otish hamda xalqaro ijodiy aloqalarni kengaytirish, tinchlik, do'stlik, o'zaro hamjihatlik, madaniy - ma'naviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalini tashkil etgan. Festival 1997- yildan buyon har ikki yilda bir marotaba Samarqand shahridagi ko'hna "Registon" maydonida avgust oyining 2-yarmi oxirida o'tkazilib kelinadi. Festivalda ishtirokchi davlatlar soni yildan yilga ko'paymoqda. Jumladan, I - festivalda 34 ta davlat, II - festivalda 36 ta davlatdan 250 dan ortiq vakillar o'z san'atlarini namoyish etdilar. Festivalga har yili katta tayyorgalik ko'riladi va rang-barang namoyishlarga boy ochilish marosimi dasturi bilan festival boshlanadi. Ochilish marosimida faxriy mehmonlar, jumladan UNESCO prezidenti, O'zbekiston Respublikasi prezidenti va hokimiyat vakillari o'z nutqlari bilan chiqishadi. Musiqiy haftalikda o'nlab davlat vakillari ishtirok etadilar sharq madaniyati va urf odatlarini e'zozlagan holda festival ko'tarinki kayfiyatda davom etadi. Yuqoridagi fikrlarga suyanagan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo'llari sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rnini topganligi ehtimoldan holi emas. Sharq musiqa

madaniyati butun dunyo musiqa madaniyatining rivojlanishiga turtki bo'la oldi desak adashmagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.F.M.Karamatov, "O'zbek xalq musiqa merosi". Toshkent G'. G'ulom nomidagi nashriyot - 1978 y.
- 2.Sharq taronalari festivali 2011-yil.
- 3.O'zbekiston milliy ensklapediyasi.